



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

No8
MAXSUS SON



BAKALAVR TALABALARINIG MAQOLALARI TO'PLAMI



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2025



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Elektron nashr. 206 sahifa.

2025-yil noyabr

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoiraz Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldix'o'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Viktorovna, Candidate of Economic Sciences (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilkhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher

08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 Makroiqtisodiyot
08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 Ekonometrika va statistika
08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 Marketing
08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 Menejment
08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 28-fevraldagi
333/5-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

MEHMONXONA KORXONALARIDA INNOVATSION LOYIHALARNI AMALGA OSHIRISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.....	10
Erkaboyeva Jasmina Safarali qizi, Ochilova Hilola Farmonovna	
FAULT TOLERANCE AND SELF-HEALING IN IOT-ENHANCED P2P SYSTEMS	15
Ibrokhimkhuja Rikhsikhujayev, Mohit Bhandwal	
BIZNES BOSHQARUVIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISHNING IQTISODIY SAMARADORLIGI.....	22
Ikromov Boisxon Bahodir o'g'li, Ozodbek Musayev	
BIOLOGIYA FANINI O'QITISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VA VIRTUAL LABARATORIYADAN FOYDALANISHNING SAMARADORLIGI.....	27
Turayeva Sabrina Kamoliddin qizi, Qodirov Farrux Ergash o'g'li	
YASHIL LOGISTIKA VA TRANSMILLIY KORPORATSIYALAR.....	32
Rafiqov Abror Baxtiyor o'g'li, Narzullayev Elmurod Shuxrat o'g'li	
OMBORXONALARNI BOSHQARISHDA RFID TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISHNI AFZALLIKLARI	36
Mirkamolov Mirsardor Mirxamdami o'g'li, Yuldashev Abduhakim Abdulkarimovich	
STARTAPLAR VA KICHIK BIZNESNING IQTISODIY O'SISH VA RIVOJLANISH JARAYONLARIDAGI ROLI	41
Abdumajidova Muxlisa Alisher qizi, Umarova Mukaddas Abbasovna	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MILLIY SUG'URTA TIZIMIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI XORIJ TAJRIBASI ASOSIDA QO'LLASH ISTIQBOLLARI	46
Sobirova Ozoda Rustamovna, Safarov Javohir Ismoilovich	
IQTISODIY XAVFSIZLIKNI TA'MINLASHDA MILLIY TO'LOV TIZIMLARINING ELEKTRON TIJORATDAGI AHAMIYATI.....	50
Teshayev Sayimbek Anvarovich, Tashmuxeamedova Yayra Atxamovna	
CHANGES IN PULSE RATE IN BLOOD VESSELS DURING PHYSICAL EXERCISE	56
Pirnazarov Elchin Anvar o'g'li, Yoldasheva Roila Jumaevna	
JAHON IQTISODIYOTIDA GLOBAL XAVFSIZLIK VA IQTISODIY BARQARORLIK	61
Qayumov Sobit Obid o'g'li, Xasanov Nodir Erkinovich	
LABOR RESOURCES – THE MAIN FACTOR OF NATIONAL DEVELOPMENT.....	68
Qurbanov Tolmasjon Namoz ugli, Mustafayev Golib Sultonmurodovich	
ISTE'MOLCHI TANLOVI VA NAFLILIK NAZARIYASINI ILMIY ASOSLARI.....	75
Q.Abdulkarimov, M.Keldibekova, F.Umarov	
KORXONALARDA RAQAMLI MARKETINGDAN FOYDALANISHNI TAKOMILLASHTIRISH	80
Tumaris Nietullaeva, Alimxodjayeva Nargiza Elshodovna	
OMMAVIY AXBOROT VOSITALARINING INSON VA JAMIYAT HAYOTIDAGI TA'SIRI HAMDA AXBOROT XURUJLARI	87
Kodirov Ozodbek, F.Umarov	
QURILISH MATERIALLARI SANOATIGA KIRITILAYOTGAN INVESTITSIYALAR TAHLILI VA TARMOQNING MAMLUKAT EKSPORTIDAGI O'RNI.....	93
G'ulomiddin Bobobek Sardorjon o'g'li, G'ulamov Ilhom Akramovich	
BIZNESNI BOSHQARISHDA ERP TIZIMIDAN FOYDALANISHNING AFZALLIKLARI	98
Abduhamidova Shodiyaxon Abdushukur qizi, Yuldashev Abduhakim Abdulkarimovich	
O'ZBEKISTON VA AFG'ONISTON HAMKORLIK MUNOSABATLARINING YANGI BOSQICHI	103
Fayzullayev Aminjon, F.Umarov	
O'ZBEKISTONDA HUDUDLAR IQTISODIY RIVOJLANISHIDAGI TAFOVUTLAR	110
Najmiddinova Malikabonu Asrorovna, F.Umarov	
TO'QIMACHILIK SANOATIDA CHARM-POYABZAL TARMOG'INING RIVOJLANISH YO'NALISHLARI XUSUSIDA	117
Mahmudov Orifbek Abdumomin o'g'li, Azmiova Feruza Payziyevna	



O'ZBEKISTONDA RAQAMLI IQTISODIYOTNING TARKIBIY RIVOJLANISHI VA UNING IQTISODIY SAMARADORLIKKA TA'SIRI	122
Xayrullayev Javohir Sheraliyevich, Maqsudov Bunyodjon Abdusamat o'g'li	
MINTAQALARNI IJTIMOIIY-IQTISODIY RIVOJLANISHINI TARTIBGA SOLISH VA XALQARO TAJRIBA.....	128
Xudoyberdiyev Feruzbek, F.Umarov	
MINTAQALAR IQTISODIYOTINING RIVOJLANISH HOLATINI BAHOLASH: TAHLIL VA USTUVOR YO'NALISHLAR.....	135
Yarashev Mirkomil, F.Umarov	
OROL DENGIZI INQIROZI OQIBATIDA YER DEGRADATSIYASI VA YASHIL IQTISODIYOTGA O'TISH IMKONIYATLARI: QORAQALPOG'ISTON MISOLIDA (NDVI VA NDMI TAHLILI ASOSIDA)	141
Nurmatova Shahzoda, Oralbaev Bakhitjan Orintaevich, Ruziyeva Iroda Davutovna, Turotova Nigora Xolmurod qizi	
MINTAQADA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI	147
Abubakirova Xonzoda, F.U.Umarov	
ИНФОРМАЦИОННАЯ БЕЗОПАСНОСТЬ И МОЛОДЁЖЬ: ПРОБЛЕМЫ ДУХОВНОГО ИММУНИТЕТА В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКИ	154
Абдуллаев Бехзод Баходир угли, Байбобоева Фируза Набижоновна	
SUN'IY INTELLEKT NAZARIYASI VA AMALIYOTI: TAJRIBALAR, MUAMMOLAR VA ISTIQBOLLAR	158
Hamroyeva Dilnura G'ayrat qizi, To'qmirzayev Kamol Mo'min o'g'li	
QISHLOQ HUDUDLARIDA KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISHDA XALQARO TASHKIOTLARNING (FAO, UNDP, IFAD) LOYIHALARI TAJRIBASI	162
Z.B.Negmatullayeva, O.Q.Xudayberdiyeva	
O'ZBEKISTON RAQAMLI IQTISODIYOTI VA SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARINING IQTISODIY O'SISH STRATEGIYASIDAGI O'RNI.....	168
Bo'riyev Behruzbek Bahodir o'g'li, Elov Dilshod Abdujabborovich	
«ЦИФРОВАЯ ТРАНСФОРМАЦИЯ КЛИЕНТСКОГО ОПЫТА В БАНКАХ: ИНТЕГРАЦИЯ ОМНИКАНАЛЬНЫХ СТРАТЕГИЙ И СОВРЕМЕННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ»	173
Каримов Диёрбек Дилшод ўгли, Уснатдинов Миратдин Саламатдинович, Юлдашев Жамшид Аббарович	
O'ZBEKISTON IQTISODIYOTIDA INFLYATSIYANING ASOSIY OMILLARI VA ULARNI KAMAYTIRISH STRATEGIYALARI.....	182
Bazarbaeva Dildora Ekramjon qizi, Koshanov Abdimurat Azat uli	
ОСОБЕННОСТИ МАКРОЭКОНОМИЧЕСКОЙ СТАБИЛЬНОСТИ В УЗБЕКИСТАНЕ.....	188
Хайруллаев Хожиакбар, Ишонкулова Феруза Асатовна	
QISHLOQ XO'JALIGIDA YASHIL TEXNOLOGIYALARNING QO'LLANILISHI.....	193
Sharipboyev Hasanboy Marks o'g'li, Olimov Maqsudjon Komiljon o'g'li	
HALOL MEHMONXONALARNI TASHKIL ETISHNING AHAMIYATI.....	198
Farxodov Zafar Qaxramon o'g'li, Shaymanova Nigora Yusupovna	



HALOL MEHMONXONALARNI TASHKIL ETISHNING AHAMIYATI

Farxodov Zafar Qaxramon o'g'li

TDIU, Turizm fakulteti

Turizm va mehmondo'stlik yo'nalishi 2-bosqich talabasi

E-mail: fazliddinzafar59@gmail.com

ORCID: 0009-0005-4334-0173

Ilmiy rahbar:

Shaymanova Nigora Yusupovna

TDIU, Turizm va mehmonxona biznesi kafedrası katta o'qituvchisi, PhD

E-mail: yusupovnanigor@gmail.com

ORCID: 0009-0006-4461-0144

Annotatsiya: Ushbu maqolada halol mehmonxonalar turizm sohasida ularning tashkil etilishining dolzarbligi, iqtisodiy va diniy ahamiyati ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqot jarayonida musulmon sayyohlar uchun qulay va xavfsiz shart-sharoitlar yaratish, sifatli xizmat ko'rsatishda xizmatlarning halol va shariat talablariga muvofiqligi eng muhim omil sifatida asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: halol mehmonxonalar, musulmon sayyohlar, halol turizm, halol sertifikat, xizmat sifatining halolligi, diniy va iqtisodiy ahamiyat.

Abstract: This article provides a scientific analysis of the relevance of establishing halal hotels in the tourism sector, as well as their economic and religious significance. The study emphasizes that creating comfortable and safe conditions for Muslim tourists and ensuring that services comply with halal principles and Sharia requirements are key factors in delivering high-quality services and promoting the development of halal tourism.

Key words: halal hotels, Muslim tourists, halal tourism, halal certification, service quality compliance, religious and economic significance.

Аннотация: В данной статье проводится научный анализ актуальности создания халяльных гостиниц в сфере туризма, а также их экономического и религиозного значения. В ходе исследования обосновывается, что создание комфортных и безопасных условий для мусульманских туристов, а также обеспечение качества услуг в соответствии с принципами халяль и требованиями шариата являются ключевыми факторами развития халяльного туризма.

Ключевые слова: халяльные гостиницы, мусульманские туристы, халяльный туризм, халяльная сертификация, качество халяльных услуг, религиозное и экономическое значение.

KIRISH

XXI asrda turizm sohasining jadal rivojlanishi global miqyosda turistlar sonining oshishiga sabab bo'lmoqda. Xususan, islom diniga e'tiqod qiluvchilar soni yil sayin ortib bormoqda. 2025-yil 23-noyabr holatiga ko'ra, dunyo bo'ylab taxminan 2 055 090 732 nafar kishi islom diniga e'tiqod qiladi, bu esa dunyo aholisining (8 220 362



926) umumiy sonining 25 foizidan ortig'ini tashkil etadi. Aholi soni bo'yicha islom dunyodagi ikkinchi eng yirik din hisoblanadi.

Eng ko'p musulmon aholisi quyidagi davlatlarda istiqomat qiladi: Indoneziyada – 242 700 000 kishi, Pokistonda – 240 760 000 kishi, Hindistonda – 200 000 000 kishi, Bangladeshda – 150 800 000 kishi va Nigeriyada – 97 000 000 kishi. Islom dini Osiyo, Afrika, Yaqin Sharq va Sahroi Kabir janubidagi Afrika mintaqasida joylashgan 26 mamlakatda rasmiy diniy tizim doirasida tan olingan.

Shu bilan birga, islom dinining dunyo bo'yicha o'sish sur'ati boshqa dinlarga nisbatan tezroq bo'lib, global miqyosda eng tez rivojlanayotgan din sifatida e'tirof etiladi. Ushbu toifadagi sayyohlarga xizmat ko'rsatish, jumladan, joylashtirish va ovqatlantirish vositalarini islom dini normalariga muvofiq tashkil etish, ibodat qilish uchun maxsus joylar hozirlash, jinslar bo'yicha alohida xizmat turlari va hududlarni yaratish, umuman olganda, ularga "halol muhit"ni ta'minlab berish turizm industriyasi oldida turgan muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Mazkur turdagi mehmonxonalar uchun maxsus standartlar ishlab chiqilgan bo'lib, ular 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval. Halol mehmonxonalarni tashkil etishda qo'yilgan talablar va tavsif

№	Standartlar	Tavsif
1	Halol ovqat va ichimliklar	Faqat islom shariatiga muvofiq tayyorlangan ovqat va ichimliklar taqdim etiladi
2	Spirтли va harom mahsulotlar taqiqlanishi	Spirтли ichimliklar (pivo, aroq, vino va boshqalar) va harom mahsulotlar mavjud emas
3	Ibodot xonalari	Namoz o'qish uchun alohida xonalar mavjud
4	Ayollar va erkaklar uchun ajratilgan zonalar	Suv havzasi, sauna va spa xonalari erkaklar va ayollar uchun alohida
5	Qur'on va ibodat joylari	Qur'on nusxalari, sajda joylari va qibla yo'nalishi belgilar mavjud
6	Islomiy axloqiy qoidalar	Mehmonxona muhitida islomiy axloqiy qoidalar ustuvor bo'ladi

Halol mehmonxonada qolish musulmon sayohatchilar uchun qator qulayliklarni yaratadi, jumladan:

1. Tinchlik. Halol mehmonxonalar islomiy qadriyatlar va tamoyillarga mos muhitni ta'minlaydi, bu esa musulmon sayohatchilarga xotirjamlik hissin beradi.

2. Qulaylik. Halol mehmonxonalar namozxonalar hamda halol sertifikatiga ega oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlaydi. Shu sababli musulmon sayohatchilar mos obyektlar va ovqatlanish variantlarini izlash haqida tashvishlanmaydi.

3. Madaniy va diniy qadriyatlarni hurmat qilish. Halol mehmonxonalar musulmon sayyohlarning madaniy va diniy qadriyatlariga hurmat bilan yondashadi.

Bugungi kunda dunyo bo'ylab ko'plab halol mehmonxonalar musulmon sayohatchilarga xizmat ko'rsatib kelmoqda. Ulardan eng mashhurlari quyidagilar:

- Ritz-Carlton – Kuala-Lumpur, Malayziya;
- Fairmont Makkah Clock Royal Tower – Saudiya Arabistoni;
- Shangri-La mehmonxonasi – Dubay, BAA.


"Halol mehmonxonalar" iborasi qo'llaniladigan joylarda "shariat mehmonxonalari" atamasi ham tez-tez uchraydi. Ushbu ikki turdagi mehmonxonalar o'rtasidagi asosiy farq taom va ichimliklar taklifi hamda islom qonunlarining qanchalik darajada amal qilinishida namoyon bo'ladi. Halol mehmonxonalar halol sertifikatiga ega oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlaydi, ya'ni mahsulotlar islom qonunlariga muvofiq tayyorlanadi. Biroq tartib-qoidalar jihatidan ular shariat mehmonxonalari nisbatan yengilroq bo'ladi. Masalan, halol mehmonxonalarda shariat mehmonxonalaridan farqli ravishda erkaklar va ayollar birgalikda yurishi mumkin.

Shariat mehmonxonalari esa islom shiati talablariga to'liq javob beruvchi, har jihatdan musulmon sayyohlarga diniy e'tiqodlariga zid bo'lmagan yashash va xizmat ko'rsatish imkonini beruvchi mehmonxonalardir. Ular halol mehmonxonalarga nisbatan yanada chuqurroq diniy tartib-qoidalariga asoslanadi.

Mazkur turdagi mehmonxonalar ham dunyoning bir qator hududlarida turistlarga xizmat ko'rsatib kelmoqda. Ulardan eng mashhurlari quyidagilar:

- Al Meroz Hotel – Bangkok, Tailand;
- Madinah Mövenpick mehmonxonasi – Saudiya Arabistoni;
- Rixos Saadiyat Island – Abu-Dabi, BAA.

Ushbu turdagi mehmonxonalar ham sayyohlarga bir qator qulayliklar va imkoniyatlarni taqdim etadi (1-rasm).



1-rasm. Shariat mehmonxonalarining qulayliklari

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Tadqiqotning ilmiy-nazariy asoslarini shakllantirishda halol turizm, shariatga muvofiq mehmonxonalar hamda global halol bozor tendensiyalariga oid bir qator zamonaviy ilmiy ishlardan foydalanildi. Jumladan, Rahman, Azli, Zhaffar va Babge (2025) tomonidan yozilgan "Important References for Shariah-Compliant Hotels: Global and Local Perspectives" nomli maqolada global va mahalliy standartlarning o'ziga xos jihatlari tahlil qilingan. Unda ta'kidlanishicha, global standartlar bozorda tanilish va xalqaro miqyosda kirib borish imkonini yaratrsa, mahalliy standartlar teologik asoslanganlik va hududiy sharoitga moslikni ta'minlaydi. Biroq qamrov doirasi, terminologiya va amaliyotdagi farqlar ushbu tizimlar o'rtasida yanada uyg'unlikka ehtiyoj mavjudligini ko'rsatadi. Tadqiqotchilar shariatga muvofiqlikni ta'minlovchi asosiy mezonlar, jumladan halol ovqatlanish, ibodat sharoitlari, xodimlar etikasi va xizmatlar dizayni masalalarini chuqur ilmiy tahlil qilganlar.

Shuningdek, Marlina va boshqalar (2025) tomonidan chop etilgan "Indonesia's Strategy Creating Halal Tourism for Sustainable Development Goals" nomli maqolada Indoneziyaning halol turizm sohasidagi siyosati tahlil qilinib, uning Barqaror rivojlanish maqsadlari (SDGs) bilan integratsiyasi yoritilgan. Mualliflarning fikricha, halol turizm iqtisodiy diversifikatsiya, yangi turist segmentlarini jalb etish va milliy brendni rivojlantirishda muhim omil hisoblanadi. Ushbu yondashuv O'zbekiston sharoitida qiyosiy tahlil va amaliy baholash olib borish uchun muhim ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqot halol mehmonxonalarni tashkil etishning nazariy asoslari, xalqaro standartlari hamda turizm bozoridagi talab dinamikasini tahlil qilishga qaratilgan bo'lib, bir nechta ilmiy-uslubiy yondashuvlar asosida amalga oshirildi. Tadqiqot jarayonida ilmiy maqolalar, xalqaro turizm statistik ma'lumotlari, halol sertifikatlash me'yorlari hamda rasmiy turistik axborot saytlaridan olingan ma'lumotlar tizimli ravishda tahlil qilindi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Halol turizm bozori global miqyosda tez sur'atlar bilan o'sib borayotgan segmentlardan biri bo'lib, raqamli yechimlar va sertifikatlash tizimlari orqali musulmon sayohatchilar uchun qulay va ishonchli sayohat imkoniyatlarini taqdim etmoqda. 2024-yilda halol turizm bozori hajmi 301,9 milliard AQSh dollariga baholangan bo'lib, 2025-2032-yillar davomida o'rtacha yillik o'sish sur'ati (CAGR) 6,5 foizni tashkil etishi va bozor hajmi 499,7 milliard AQSh dollariga yetishi kutilmoqda (2-jadval).

Bozor yetakchilari qatoriga CrescentRating, Mastercard, HalalTrip, Expedia Group, Tripadvisor, Google Travel, Airbnb va Salam Standard kabi kompaniyalar kiradi. Ushbu kompaniyalar raqamli innovatsiyalar, halol sertifikatlash tizimlari hamda global turizm tashkilotlari bilan hamkorlik orqali musulmon sayohatchilar uchun qulay shart-sharoitlar yaratmoqda. CrescentRating va HalalTrip asosan reyting standartlari hamda diniy asoslangan sayohat yechimlariga ixtisoslashgan bo'lsa, Expedia va Tripadvisor platformalarida halol sayohat filtrlari orqali keng auditoriyani qamrab olish imkoniyati yaratilgan.

Mintaqaviy taqsimotga ko'ra, 2024-yilda Osiyo-Tinch okeani mintaqasi bozorning eng katta ulushini (43 foiz) egallagan bo'lib, bunda Malayziya, Indoneziya va Tailandning rivojlangan turizm infratuzilmasi muhim



rol o'ynaydi. Yevropa esa 24 foiz ulush bilan ikkinchi o'rinni egallab, ushbu mintaqada madaniy-meros turizmi hamda musulmon sayohatchilarga mo'ljallangan mehmondo'stlik xizmatlarining rivojlanishi bilan izohlanadi.

2-jadval. Halol turizm bozori yakuniy hisoboti

№	Ko'rsatkichlar	Ma'lumotlar
1	Bozor qiymati (2024)	301,9 milliard AQSh dollari
2	Bozor prognozi (2032)	499,7 milliard AQSh dollari
3	O'rtacha yillik o'sish sur'ati (CAGR, 2025-2032)	6,5%
4	Yetakchi kompaniyalar	CrescentRating, HalalTrip, Mastercard, Expedia Group, Tripadvisor, Google Travel, Airbnb, Salam Standard
5	Yetakchi kompaniyalar faoliyati	Raqamli innovatsiyalar, halol sertifikatlash tizimlari, global turizm kengashlari bilan hamkorlik
6	Mintaqaviy taqsimot (2024)	Osiyo-Tinch okeani – 43%Yevropa – 24%
7	Mintaqa tafsilotlari	Osiyo: Malayziya, Indoneziya, Tailand – rivojlangan turizm infratuzilmasiYevropa: meros turizmi va musulmon sayohatchilarga qulay mehmondo'stlik

Har bir sohada sifat talab va taklifga bevosita ta'sir etuvchi eng muhim omillardan biri hisoblanadi. Turizm sohasida ham ushbu holat alohida ahamiyat kasb etadi. Turizm nomoddiy mahsulot yaratgani bois, xizmatning sifat darajasi faqat undan foydalanish jarayonida namoyon bo'ladi. Shu sababli xaridorlar, ya'ni turistlar tomonidan asosiy e'tibor xizmat sifatiga qaratiladi. Mahsulot yoki xizmat sifatini aniqlashning eng ishonchli usullaridan biri esa uning sertifikatga ega ekanligidir. Sertifikatlash jarayonida mahsulot yoki xizmat belgilangan talab va standartlar asosida sinovdan o'tkaziladi hamda ushbu talablar bajarilganda sertifikat taqdim etiladi.

Halol va shariatga muvofiq mehmonxonalar uchun sertifikatlash jarayoni mehmonxona faoliyatining islomiy talablar asosida tashkil etilishini, musulmon sayyohlar uchun xavfsiz va qulay muhit yaratilishini ta'minlovchi muhim bosqich hisoblanadi. Sertifikatlash orqali mehmonxonalar halol turizmni rivojlantirishga hissa qo'shadi va o'z xizmatlarini ishonchli hamda raqobatbardosh tarzda taqdim etish imkoniga ega bo'ladi.

Halol mehmonxonalar uchun sertifikatlar dunyoning bir qator nufuzli tashkilotlari tomonidan beriladi. Jumladan, CrescentRating (Singapur) halol turizm sohasidagi eng yirik baholovchi tashkilotlardan biri hisoblanadi. Ushbu tashkilot tomonidan beriladigan sertifikat jahon miqyosida keng tan olingan bo'lib, halol turizm reytinglari va indekslarini ishlab chiqish, mehmonxonalar va turizm xizmatlarining halol talablariga muvofiqligini baholash, shuningdek, musulmon sayyohlar uchun yo'riqnomalar va mobil ilovalar taqdim etish kabi faoliyatlarni amalga oshiradi. Bundan tashqari, CrescentRating halol turizm sohasida yuqori natijalarga erishgan kompaniyalar va mamlakatlarni mukofotlab boradi.

Shuningdek, World Halal Tourism Organization (WHTO) – Jahon halol turizm tashkiloti ham ushbu yo'nalishda muhim rol o'ynaydi. Mazkur tashkilot halol turizmni rivojlantirish bo'yicha xalqaro institutlar bilan hamkorlikda global strategiyalar ishlab chiqadi va ularni amaliyotga tatbiq etadi.

O'zbekistonda ham halol turizmni rivojlantirish bo'yicha normativ-huquqiy baza shakllantirilgan. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Turizm qo'mitasi huzuridagi "Turizm xizmatlarini sertifikatlashtirish markazi" davlat unitar korxonasi tomonidan O'zDSt 3334:2018 – "Turizm xizmatlari. Musulmon mehmondo'stligi. Talablar" milliy standarti ishlab chiqilgan. Ushbu standart Malayziyaning MS 2610:2015 standarti asosida ishlab chiqilgan bo'lib, uning 5.2-bandida musulmon sayyohlar uchun joylashtirish vositalariga qo'yiladigan asosiy talablar belgilangan. Bu esa O'zbekistonda jahon tajribasiga asoslangan halol turizm tizimini shakllantirishga xizmat qilmoqda.

Mazkur yo'nalishda olib borilayotgan islohotlar natijasida O'zbekiston xalqaro miqyosda e'tirof etilmoqda. Jumladan, 2023-yilda Xiva shahri Singapurda o'tkazilgan "Halal in Travel Global Summit" anjumanida "Yilning Islomiy Yo'nalishi" mukofotiga sazovor bo'ldi. 2022-yilda esa Samarqand shahri "Islomiy meros yo'nalishi" hamda "Yangi musulmon sayyohlar uchun eng do'stona yo'nalish" nominatsiyalarida g'olib deb topildi.

Halol mehmonxonalar turizm sohasida sezilarli ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy ta'sir ko'rsatadi. Ijtimoiy jihatdan bunday mehmonxonalar musulmon sayohatchilar uchun qulay va xavfsiz sharoit yaratib, diniy va madaniy talablarni hisobga olgan holda oilaviy hamda guruhli sayohatlarni rag'batlantiradi. Natijada turistlarning turizm faoliyatiga bo'lgan ishonchi ortadi, mahalliy jamoalarda esa madaniy uyg'unlik va ijtimoiy hamjihatlik mustahkamlanadi.

Iqtisodiy jihatdan halol mehmonxonalar yangi turistlar segmentini jalb etib, daromadlarning oshishiga, soliq tushumlarining ko'payishiga hamda xizmat ko'rsatish sohasida yangi ish o'rinlarining yaratilishiga xizmat qiladi.



Shu bilan birga, halol sertifikatlash tizimi mehmonxona brendi va mamlakat turizm imijini mustahkamlab, global raqobatbardoshlikni oshiradi.

Bu borada Malayziya shariatga muvofiq mehmonxonalarni rivojlantirish bo'yicha tizimli yondashuvi tufayli global miqyosda yetakchi mamlakat sifatida tan olingan. Mazkur yondashuv halol turizm infratuzilmasini rivojlantirishda aniq strategiya, mukammal sertifikatlash tizimi va xizmat standartlariga qat'iy rioya etish bilan izohlanadi. Malayziya tajribasi shuni ko'rsatadiki, halol mehmonxonalarning muvaffaqiyati faqat infratuzilmaga emas, balki sifatli boshqaruv, shariatga mos sertifikatlash, raqamli monitoring tizimlari va mijozlar ehtiyojlarini chuqur tahlil qilishga ham bevosita bog'liqdir. Shu bois, boshqa mamlakatlar, jumladan Markaziy Osiyo davlatlari ham Malayziya tajribasidan kelib chiqib, halol mehmonxonalarni rivojlantirishda xizmat sifati va infratuzilmani uyg'unlashtirgan kompleks yondashuvni joriy etishlari maqsadga muvofiqdir.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Halol mehmonxonalarni tashkil etish nafaqat musulmon sayyohlar uchun qulay va ishonchli turizm xizmatlarini taqdim etishga xizmat qiladi, balki mamlakat iqtisodiyotiga sezilarli darajada daromad keltirish imkonini ham yaratadi. Halol turizm – bu musulmon sayyohlarning diniy va madaniy talablarini inobatga olgan holda tashkil etilgan maxsus turizm tarmog'i bo'lib, u turizm industriyasining barqaror rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Mazkur turizm turi nafaqat sayyohlik faoliyatini kengaytiradi, balki yangi ish o'rinlarini yaratish, mahalliy ishlab chiqarish va xizmatlar ko'lamini oshirishga ham zamin yaratadi. Halol turizmning global miqyosda jadal rivojlanishi ko'plab mamlakatlar uchun yangi daromad manbalarini ochib berib, iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda muhim omil sifatida namoyon bo'lmoqda.

Bu jarayonda mehmonxonalar, restoranlar, aviakompaniyalar hamda boshqa turizm xizmatlari sohalarida halol standartlar va shariatga muvofiq xizmatlarning joriy etilishi musulmon sayyohlarning ishonchini qozonish va ularning ehtiyojlarini to'liq qondirishda muhim rol o'ynaydi. Halol mehmonxonalarni tashkil etish va ularda taqdim etilayotgan xizmatlarni sertifikatlash musulmon sayyohlar uchun qulay va xavfsiz muhit yaratibgina qolmay, mamlakatning xalqaro turizm bozoridagi nufuzi va ijobiy imijini oshirishga ham xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Global Muslim Population // TimesPrayer. – URL: <https://timesprayer.com/>
2. What Is a Halal Hotel? // Luxury Resort Guide. – URL: <https://www.luxury-resort-guide.com/hotels/what-is-a-halal-hotel/>
3. The Halal Times – Halal turizm va sanoat yangiliklari portali. – URL: <https://www.halaltimes.com/>
4. Halal Hotels vs. Sharia-Compliant Hotels: What's the Difference? // The Halal Times.
5. Rahman, S. N. H. A., Azli, R. M., Zhaffar, N. M., & Babge, S. N. (2025). Important References for Shariah-Compliant Hotels: Global and Local Perspectives // Jurnal Islam dan Masyarakat Kontemporeri, 26(1), 23–32.
6. Marlina, L., et al. (2025). Indonesia's Strategy Creating Halal Tourism for Sustainable Development Goals: Analytical Network Process Approach // Journal of Lifestyle and SDGs Review, 5(1), e03403.
7. Ruiz-Muñoz, D., Sánchez-Sánchez, A. M., & Sánchez-Sánchez, F. J. (2025). Challenges and Opportunities for Halal Tourism // Journal of Islamic Accounting and Business Research.
8. Deb, R. K. Halal Tourism Market Report // Credence Research. – URL: <https://www.credenceresearch.com/report/halal-tourism-market#summary>
9. Uzbekistan's Khiva Wins the "Islamic Destination of the Year" Award in Singapore // Uzbek Travel. – URL: <https://www.uzbek-travel.com/>
10. O'zDSt 3334:2018 (19.10.2018). Turizm xizmatlari. Musulmon mehmondo'stligi. Talablar. – URL: <https://lex.uz/>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

8-Maxsus son. Bakalavr talabalarining maqolalari to'plami

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>